
"POSCO International Textile" MCHJni ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish masalalari yuzasidan muloqot o'tkazildi.

Bugun viloyat hokimining birinchi o'rinbosari Xabib Sirojiddinov Toshloq tumanida bo'lib, tumandagi ishlab chiqarish faoliyati hamda hajmi pasaygan korxonalar bilan tanishdi.

Dastlab, viloyat hokimi o'rinbosari "POSCO International Textile" MCHJning bosh direktori Son Won Kyung hamda direktor o'rinbosari Chang Sung Holar bilan uchrashdi. Muloqot davomida keyingi yillarda korxonaning ishlab chiqarish xajmini keskin pasayib ketish omillari muhokama qilindi. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sotish bo'yicha xaridor va buyurtmachilarni jalb qilishni tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuvda korxonada bosh direktori Son Won Kyung tomonidan bildirilgan taklif va muammolarni xal etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Shuningdek, yangi raqobatbardosh mahsulot turlarini o'zlashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Korxonada kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan istiqbolli loyihalar ko'rib chiqilib, korxonaning to'liq quvvatda ishlashi hamda qo'shimcha ishchi o'rinlarni tashkil etish bo'yicha muhokamalar olib borildi.

2024-02-07 08:34:33